



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 57 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	



TIJORAT BANKLARIDA XUSUSIY KAPITAL HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirova Zilola Maxmud qizi

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida xususiy kapital hisobining nazariy asoslari va ularni audit qilish amaliyoti tahlil qilinadi. Muallif xususiy kapital tarkibiy qismlarini aniqlashtirib, ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilishiga oid dolzarb masalalarni ko'rib chiqqan. Shuningdek, audit jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llarini taklif qilgan. Maqolada zamonaviy yondashuvlarga asoslangan takomillashtirish choralari ishlab chiqilgan bo'lib, bu tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xususiy kapital, tijorat banki, auditni takomillashtirish, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of private equity accounting in commercial banks and the practice of auditing them. The author identified the components of private equity and considered current issues related to their reflection in accounting. He also proposed problems that arise during the audit process and ways to solve them. The article develops improvement measures based on modern approaches, which will help increase the financial stability of commercial banks.

Key words: private equity, commercial bank, audit improvement, accounting, financial analysis.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы учета частного капитала в коммерческих банках, а также анализируется практика его аудита. Автором выделены ключевые компоненты частного капитала и проанализированы актуальные вопросы, связанные с их отражением в системе бухгалтерского учета. Особое внимание уделено типичным проблемам, возникающим в процессе аудиторской проверки, и предложены возможные пути их устранения. В завершение разработаны рекомендации по совершенствованию аудита с учетом современных подходов, направленных на повышение финансовой устойчивости коммерческих банков.

Ключевые слова: частный капитал, коммерческий банк, аудит, бухгалтерский учет, финансовая устойчивость.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatini real baholash hamda omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun ichki audit tekshiruvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish zarur va dolzarb hisoblanadi. Tijorat banklarida ichki audit xizmatini tashkil etish va uning faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 25-noyabrdagi "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 405-sonli yo'riqnomasida belgilangan. Ushbu hujjatda ichki audit xizmati xodimlarining vazifalari va javobgarliklari aniq ko'rsatilgan. Ichki auditning asosiy maqsadlari va vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki audit tekshiruvi natijalari asosida bankning real holati va ichki nazorat samaradorligining aniq holati to'g'risidagi ishonchli va mustaqil axborot bilan Bank Kengashini ta'minlash;

ichki audit tizimini va ichki audit tekshiruv jarayonlarining samaradorligini baholash va tahlil qilish;

bank faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda ma'muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini kuzatish;



tavakkalchilikni boshqarish jarayonini qo'llanilishini va tavakkalchilikni baholash metodologiyasining samaradorligini kuzatish;

moliyaviy axborot tizimini, shuningdek, elektron axborot tizimi va elektron bank xizmatini kuzatish;

buxgalterlik hisoboti va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini kuzatish;

bank kapitalining tavakkalchiligini baholash tizimini kuzatish;

bank faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish;

doimiy taqdim etiladigan hisobotlarning to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;

buxgalteriya kitobi va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini va ishonchligini o'rganish;

bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;

Bank Kengashi talablariga binoan maxsus tekshirishlarni o'tkazish yoki o'tkazishga amaliy yordam berish;

audit xizmati tekshiruvlari jarayonida aniqlangan qonunbuzarlik holatlari to'g'risida Bank Kengashiga axborot berish.

Bankda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning balansda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash hamda buxgalteriya hisobi tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishda ichki audit xizmatining o'zni nihoyatda muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Banklarda xususiy kapitalning yetariligi ularning barqaror rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biridir. Zero, tijorat bankining asosiy moliyaviy tayanchi aynan ushbu kapital hisoblanadi. Bank kapitalining tuzilmasini o'rganish Modigliani va Millerning mashhur ilmiy ishlanmalaridan boshlangan bo'lib, bu yo'nalish ancha uzoq tarixga ega. Ularning tadqiqotlarida kapital tuzilmasining kompaniya qiymatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi yuzasidan muhim savollarga javoblar berilgan. Keyinchalik olib borilgan ilmiy izlanishlar esa kapital tuzilmasi bilan tashqi va ichki omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tashkilotning moliyaviy holatini boshqarish darajasini ifodalovchi muhim mezon ekanligini aniqladi.

F. Mishkin kapitalga nisbatan tartibga soluvchi talablar kapital tuzilmasida asosiy omil bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Kapitalni yo'qotishlar va moliyaviy qiyinchiliklarga qarshi bufer sifatidagi an'anaviy nuqtai nazarga asoslanib, banklar Bazil kapital kelishuvlarida talab qilinganidek, muvaffaqiyatsizlik ehtimolini minimallashtirish uchun yetarli kapitalga ega. Biroq, amalda bu holat mutlaq emas.

Tijorat banklari kapitali tarkibining oqilona shakllantirilishi bank kapitalining barqarorligi va yetariligi ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

T.M. Karaliyev, O.B. Sattarov, I.F. Sayfiddinovlarning *Tijorat banklari faoliyati tahlili* nomli o'quv qo'llanmasida bank tashqi audit haqida shunday fikrlar keltirib o'tilgan: "Tashqi audit tashkilotlari ham kompleks tarzda banklar faoliyati tahlilini amalga oshiradi. Audit jarayonida bank faoliyati natijalarining xalqaro andozalarga mos kelish darajasi o'rganiladi. Audit xulosasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiflar hamda xalqaro bank faoliyatiga mos ravishda hisobot yili natijasi baholanadi."

M. Yadgarova, R. Qurbonovlarning *Bank auditi* darslik kitobida "Bank auditi auditning muhim bo'limi bo'lib, mustaqil nazorat qiluvchi subyekti sifatida bank tomonidan berilayotgan moliyaviy axborotlarning haqiqiylikni tasdiqlaydi. Undan kutilayotgan maqsad bank faoliyatining barcha qirralari bo'yicha faktlarni yig'ish va baholash, hisobotlarni tekshirish, ularning me'yoriy hujjatlarga mos ravishda bajarilgan yoki bajarilmaganligini tekshirishdan iborat", degan fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

1862-yilda Angliyada, 1867-yilda Fransiyada va 1937-yilda AQShda majburiy audit bo'yicha qonunlar qabul qilingan. Hozirgi kunda esa bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'ziga xos tashkiliy-huquqiy infratuzilmaga ega bo'lgan audit institutlari faoliyat yuritmoqda.

Tijorat banklarining barqaror rivojlanishida kapitalning yetariligi va tuzilmasi muhim o'rin tutadi. Kapital tuzilmasini chuqur o'rganish va tartibga soluvchi talablarni hisobga olish banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ichki va tashqi audit bank faoliyatining shaffofligini oshirish, moliyaviy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash va xalqaro andozalarga mosligini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Audit institutlarining faoliyati rivojlangan mamlakatlarda qonuniy asosda tartibga solingan bo'lib, bank nazoratida ishonchli mexanizm vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida xususiy kapital hisobini yuritish va auditini takomillashtirish masalalari tahlil qilindi. Tadqiqotda tahliliy, solishtirma, empirik, grafik va statistik metodlar qo'llanildi. Amaldagi buxgalteriya hisob standartlari va tijorat banklari amaliyoti o'rganilib, ular o'rtasidagi tafovutlar aniqlashtirildi. Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari asosida xususiy kapital tarkibi, uning shakllanishi va audit jarayoni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida xususiy kapital – bu bankning o'z egalari tomonidan qo'yilgan mablag'lar yoki foyda hisobidan shakllangan manbalardir. Bu kapital quyidagilardan tarkib topadi:

- Ustav kapitali;
- Qo'shimcha kapital (emisiyada ortiqcha olingan mablag'lar);
- Ta'sischilarning qo'shimcha badallari;
- Bo'linmagan foyda va zaxira fondlari.


Tijorat banklarida xususiy kapitalning hisoblanishi bankning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bank kapitali – bu bankning faoliyatini boshlash va barqaror davom ettirish uchun zarur bo'lgan asosiy manba hisoblanadi. U bankning moliyaviy tayanchini shakllantiradi va operatsiyalar jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan zararlarni qoplash uchun "himoya yostig'i" vazifasini bajaradi. Kapitalning mavjudligi bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi, bu esa bankning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi



1-rasm. Tijorat banklarida xususiy kapitalning ahamiyati.¹

Shuningdek, xususiy kapital bankning ishonchligini oshiradi, bu esa aholining va investorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Bu ishonch esa omonat va investitsiyalarning ko'payishiga olib keladi. Bank kapitali, shuningdek, kredit va investitsion faoliyatni tartibga solish imkoniyatini yaratadi, bu orqali bank tavakkal darajasini boshqarish va davlat tomonidan belgilangan regulyativ talablarga javob berish imkonini beradi.



2-rasm. Tijorat banklarida xususiy kapitalning o'ri.²

1 Muallif tomonidan tayyorlandi.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi.



Xususi kapitalning yetariligi masalasi xalqaro moliyaviy tizimda Basel I, II, III kapital kelishuvlari orqali tartibga solinadi. Unga ko'ra:

Bank kapitali bankning aktivlariga nisbatan eng kamida 8% (Basel II), ammo Basel III'da bu ko'rsatkich minimal 10,5% ga ko'tarilgan.

Kapital ikki darajaga bo'linadi:

- Tier 1 (asosiy kapital): ustav kapitali, bo'linmagan foyda va boshqa asosiy mablag'lar;
- Tier 2 (qo'shimcha kapital): zaxira fondlar, subordinatsiyalangan qarzlar va boshqalar.

O'zbekistonda ham banklarning kapitali va uning yetariligi Markaziy bank tomonidan qat'iy nazorat qilinadi va Basel talablariga muvofiqlashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, bank aksiyadorlari bir yil mobaynida ustav kapitalidagi ulushini qaytarib olmaydi. Bu esa tijorat banklarining kapitalini uzoq muddatli va barqaror shakllantirishni ta'minlaydi. Bularning barchasi banklarni moliyaviy inqirozlardan himoya qilishga, xususan, jahon moliyaviy inqirozi kabi holatlarda banklar likvidlik va to'lov qobiliyatini saqlab qolishlariga imkon beradi.

Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish subyektlari nuqtai nazaridan ikki turga bo'linadi: birinchidan, tashqi tahlil va ikkinchidan, ichki tahlil. Banklarning tashqi tahlili asosan Markaziy bank, tashqi auditor tashkilotlari va soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

1-jadval. Tashqi va ichki auditni qiyosiy tavsifi[3].

Taqqoslash elementlari	Ichki audit	Tashqi audit
Obyekti, doirasi	Rahbariyat tomonidan belgilanadi. Rivojlanishning boshida maqsadi aktivlarni saqlash va zarar ko'rishning oldini olishdir. Axborotlar tizimining funksional auditiga ko'proq e'tibor beriladi.	Maqomi bilan aniqlanadi. Asosan moliyaviy hisobot va axborotni ishonchligining auditi katta o'rin tutadi. Ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish faoliyatining auditi rivojlangan.
Malakasi	Boshqaruv strukturasi tomonidan aniqlanadi. Mustaqilligi cheklangan va malakasi kamroq.	Qat'iy belgilangan. Yuqori darajada mustaqillikka ega.
Metodlari	Asosan har xil metodlar qo'llaniladi.	Farqli tekshirishlarni detallashtirish va aniqlik.
Maqsadi	Reja yoki rahbariyat tomonidan belgilanadi.	Qonunlardan, sud organlaridan va tashqi talablardan kelib chiqadi.
Hisobot berishi	Rahbariyat oldida.	Manfaatdor guruh yoki tashkilot rahbariyati oldida Bundan tashqari qo'shimcha xizmat sifatida bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida xususi kapitalni boshqarish va hisobga olish tizimi hozirgi holatida samarali ishlayotgan bo'lsa-da, uning ba'zi jihatlari yanada takomillashtirishni talab etadi. Ayniqsa, kapital yetariligi va tarkibini baholashda riskga asoslangan yondashuvlar, bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarni inobatga olish, hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga to'liq o'tish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biridir.

Shuningdek, audit tizimining takomillashuvi orqali bank faoliyatining shaffofligi, ishonchligi va barqarorligi sezilarli darajada oshadi. Audit faoliyatining mustaqilligi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi banklarning moliyaviy axborotlarining haqqoniyligini kafolatlaydi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Natijada, xususi kapitalning to'g'ri va tizimli boshqaruvi banklarni moliyaviy muvozanatda ushlab turish, tavakkallarni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo'nalishdagi islohotlarni davom ettirish va ilg'or tajribalarni milliy tizimga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining kapital hisobini va auditini takomillashtirish – bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvni ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Bank kapitalining tuzilmasi va yetarliligi haqida aniq, haqqoniy va zamonaviy tahlillar mavjud bo'lishi kerak. Audit tizimi esa bu axborotlarning ishonchligini kafolatlaydigan mustahkam nazorat vositasi bo'lishi shart.

Tajriba va nazariy yondashuvlarga asoslanib, quyidagi takliflar kiritish mumkin:

- Kapitalni riskga asoslangan yondashuv bilan boshqarish – faqat miqdor emas, balki aktivlar sifati va tavakkal darajasini ham hisobga olish zarur.
- IFRS (xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) bo'yicha to'liq o'tish – bu kapitalni shaffof, real bozor qiymatida hisobga olishga imkon beradi.
- Kapital rejalashtirish (capital planning) tizimini joriy qilish – banklar bir necha yil oldinga kapital tuzilmasini prognoz qilishi kerak.
- Raqamli audit tizimlari – sun'iy intellekt yordamida moliyaviy axborotlarni tahlil qilish, tezkorlikni oshirish va insoniy xatoliklarni kamaytirish.
- Audit institutlari mustaqilligini mustahkamlash – tashqi audit kompaniyalari moliyaviy tashkilotlardan to'liq mustaqil bo'lishi shart.
- Kapital bo'yicha stress-testlar amaliyotini kengaytirish – moliyaviy inqiroz holatlariga qanday bardosh bera olish mumkinligini tekshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida 2019–05–11-yildagi Qonuni, O'RQ–580-son.
2. T.M. Karaliyev, O.B. Sattarov, I.F. Sayfiddinov, *Tijorat banklari faoliyati tahlili*, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Toshkent Moliya instituti. "Iqtisod–Moliya", 2013–y. – 192 b.
3. M. Yadgarova, R. Qurbonov, *Bank auditi*, Darslik, T.: "Iqtisod–Moliya", 2019–y. – 320 b.
4. Risk Management in Commercial Banks' Participating in Private Equity – Case Study Based on Silicon Valley Bank Zhou Li, Mei Jing, Sun Xiaoyu, July 2013.
5. Adizov I.J. "Tijorat banklarida xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni takomillashtirish." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 34(3), 77–82. 2024.
6. Raxmanov I. "Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari." *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 1(11–12). 2024.
7. Yusubjanov F. "Tijorat banklarida ichki audit va uni takomillashtirish yo'llari." *Yevroosiyo huquq, moliya va amaliy fanlar jurnali*, 4(4), 223–234. 2024.
8. Jalilov H. "Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish." *NRJ*, 1(9). 2024.
9. Jovliyev X.B. "Tijorat banklari xizmatlarining transformatsiyasi." *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali*, 4(03), 119–122. 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
